

**Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari
universitetining oliy ta'limdan keyingi ta'lim institutining ustuvor
yo'nalishlariga oid ixtisosliklariga talagorlar uchun ilmiy tadqiqot ishi
taqdimotiga**

TALABLAR

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur TALABLAR O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 26-maydagi PF-98-son "Yangi avlod ilmiy kadrlarini tayyorlash va ularni attestatsiya qilish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Farmonida belgilab berilgan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining (keying o'rinlarda TATU) oliy ta'limdan keyin institutida ilmiy kadrlar tayyorlashning ustuvor yo'nalishlariga oid ixtisosliklar bo'yicha tayanch doktorantura (PhD) va doktorantura (DSc)ga qabul qilishda ilmiy tadqiqot ishi taqdimotini tayyorlash, taqdim etish va baholash bo'yicha mezonlar asosida tayyorlangan.

1.2. Ilmiy-tadqiqot ishi taqdimoti (keying o'rinlarda taqdimot) — talabgor tomonidan tanlanayotgan mavzu bo'yicha dissertatsiya tadqiqotining ilmiy asoslarini, maqsad-vazifalarini va uni amalga oshirish rejasini ifodalovchi qisqacha ma'lumotni qamrab oluchi material bo'lib, u kirish imtihoni doirasida qabul komissiyasi oldida og'zaki taqdim etiladi va muhokama qilinadi.

1.3. Taqdimot ilmiy kadrlar tayyorlashning ustuvor yo'nalishlariga oid ixtisosliklar bo'yicha qabul hujjatlari tarkibida taqdim etiladi. Talabgor oliy ta'limdan keyingi ta'limga qabul uchun Davlat xizmatlari markaziga shaxsan murojaat qilganda yoki Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali yoxud Oliy ta'limdan keyingi ta'limni muvofiqlashtirishning yagona elektron tizimi orqali ariza yuborganda taqdimot elektron shaklda qabul hujjatlariga ilova qilinadi.

1.4. Taqdimotning maqsadi — talabgorning tanlangan ustuvor yo'nalishlarga oid ixtisoslik va mavzu bo'yicha ilmiy tayyorgarlik darajasini, mustaqil tadqiqot olib borish qobiliyatini, mavzuning dolzarbligini asoslash va tadqiqotni rejalashtirish ko'nikmalarini baholashdan iborat.

2. TAYANCH DOKTORANTURA (PhD) TAQDIMOTI MAZMUNIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

2.1. Taqdimotning mazmuni aniq, qisqa va mantiqiy izchillikda bayon etilishi, qismlari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, tadqiqot g'oyasini yaxlit anglash imkonini ochib berishi tavsiya etiladi.

2.2. Tayanch doktorantura (PhD) taqdimoti talabgorning mustaqil ilmiy tadqiqot olib borishga tayyorligi, ilmiy muammoni anglashi, tadqiqot maqsadi va vazifalarini belgilashi, tadqiqot uchun asoslangan usullarni tanlashi hamda tadqiqotni rejalashtira olish salohiyatini namoyon etadi.

Ilmiy-tadqiqot ishi taqdimoti quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga olishi lozim:

2.3. Mavzuning tanlanishi va dolzarbligi: Mavzuning ilmiy-nazariy va amaliy dolzarbligi aniq asoslab berilishi, mavzuning ilmiy ixtisoslikka, tarmoq/soha ustuvor yo'nalishlariga, davlat dasturlari va strategik hujjatlarga mosligi ko'rsatilishi lozim.

2.4. Muammoning o'rganilganlik darajasi: Mavzu bo'yicha mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari qisqacha tahlil qilinadi, mavjud tadqiqotlardagi bahsli va yetarlicha o'rganilmagan jihatlar aniq ko'rsatiladi.

2.5. Tadqiqotning maqsadi va vazifalari: Tadqiqotning yakuniy maqsadi aniq va lakonik shaklda ifodalanadi, unga erishish uchun zarur bo'lgan aniq vazifalar mantiqiy ketma-ketlikda (odatda 4–6 ta) ro'yxat shaklida keltiriladi.

2.6. Tadqiqot ob'yekti va predmeti: Tadqiqot ob'yekti (o'rganilayotgan hodisa, jarayon yoki tizim) va predmeti (shu ob'yektning tadqiq etiladigan aniq jihat, xususiyati, munosabati mexanizm, jarayon yoki usul) aniq ajratib ko'rsatiladi.

2.7. Tadqiqot metodologiyasi va usullari: Qo'llaniladigan umumilmiy va maxsus tadqiqot usullari (tahlil-sintez, qiyosiy-huquqiy, statistik, eksperimental, matematik modellash va boshqalar) sanab o'tiladi va ularning tanlanish sababi asoslanadi.

2.8. Kutilayotgan ilmiy yangilik: Tadqiqot natijasida olinishi kutilayotgan yangi ilmiy natijalar, yondashuvlar yoki yechimlar aniq va qisqa shaklda ifodalanadi — bu qism taqdimotning eng muhim qismlaridan biri hisoblanadi.

2.9. Nazariy va amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijalarining fan nazariyasiga qo'shadigan hissasi, shuningdek amaliyotda (ishlab chiqarish, ta'lim, boshqaruv, huquqni qo'llash va h.k.) qanday qo'llanilishi mumkinligi ko'rsatiladi.

2.10. Dissertatsiyaning taxminiy tuzilishi: Tayyorlanishi kutilayotgan dissertatsiyaning kirish, boblar (odatda 3-4 ta bob) va ularning paragraflari, xulosa qismlaridan iborat taxminiy rejasi (mundarijasi) keltiriladi.

2.11. Tadqiqot bosqichlari bo'yicha taqvim-tematik reja: Tadqiqotning butun davri (odatda 3 yil) bo'yicha bosqichma-bosqich ish rejasi jadval shaklida keltiriladi:

Bosqich	Bajariladigan ishlar mazmuni	Muddati
I	Adabiyotlar tahlili, ilmiy apparatning aniqlashtirilishi, tadqiqot metodikasini ishlab chiqish	1-yil
II	Asosiy tadqiqot ishlarini bajarish, dalillarni yig'ish va tahlil qilish, ilmiy maqola va tezislar chop ettirish	2-yil
III	Natijalarni umumlashtirish, dissertatsiyani rasmiylashtirish, muhokamadan o'tkazish va himoyaga tayyorlash	3-yil

2.12. Foydalanilishi rejalashtirilgan asosiy adabiyotlar ro'yxati: Taqdimot oxirida tadqiqot davomida foydalanilishi ko'zda tutilgan asosiy ilmiy manbalar (kamida 15–20 ta), jumladan so'nggi 5–10 yil ichida nashr etilgan yetakchi xorijiy va mahalliy adabiyotlar ro'yxati keltiriladi.

2.13. Talabgorning mavjud ilmiy natijalari: Talabgorning tanlangan mavzu yoki unga yaqin yo'nalish bo'yicha avval nashr etilgan ilmiy maqola va tezislari ro'yxati (chop etilgan joyi, yili ko'rsatilgan holda) taqdimotga ilova qilinadi.

3. DOKTORANTURA (DSc) TAQDIMOTI MAZMUNIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

3.1. Taqdimotning mazmuni aniq, qisqa va mantiqiy izchillikda bayon etilishi, qismlari bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, tadqiqot g'oyasini yaxlit anglash imkonini ochib berishi tavsiya etiladi.

3.2. Doktorantura (DSc) taqdimotida talabgorning avvalgi ilmiy natijalari va tajribasiga tayangan holda yangi ilmiy muammoni belgilashi, uni hal etish konsepsiyasini asoslashi, kutilayotgan ilmiy yangilik hamda ilmiy va amaliy ahamiyati va tadqiqotni amalga oshirish strategiyasi ko'rsatib beriladi.

Ilmiy-tadqiqot ishi taqdimoti quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga olishi lozim:

3.3. Mavzuning tanlanishi va dolzarbligi: Mavzuning ilmiy-nazariy va amaliy dolzarbligi aniq asoslab berilishi, mavzuning ilmiy ixtisoslikka, tarmoq/soha ustuvor yo'nalishlariga, avvalgi ilmiy ishlarining mantiqiy davom ekanligiga, davlat dasturlari va strategik hujjatlarga mosligi ko'rsatilishi lozim.

3.4. Muammoning o'rganilganlik darajasi: Mavzu bo'yicha mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari qisqacha tahlil qilinadi, mavjud tadqiqotlardagi bahsli va yetarlicha o'rganilmagan jihatlar aniq ko'rsatiladi. Avvalgi natijalar doktorantura (DSc) tadqiqotining boshlang'ich ilmiy asosi sifatida ko'rsatiladi. Talabgorning oldingi tadqiqotlarida hal qilgan masalalari bilan yangi tadqiqotida yechimi izlanayotgan muammo o'rtasidagi uzviylik ochib beriladi. Ilmiy tadqiqot yo'nalishi bo'yicha zamonaviy ilmiy holat tahlil qilinadi. Talabgor tomonidan mahalliy va xorijiy tadqiqotlarda erishilgan muhim natijalar, mavjud ilmiy yondashuv va yechimlar hamda ularning yetarli bo'lmagan jihatlari ko'rsatib beriladi.

3.5. Tadqiqotning konsepsiyasi, maqsadi va vazifalari: Tadqiqot konsepsiyasida aniqlangan ilmiy muammoni hal etishga qaratilgan asosiy ilmiy g'oya, yondashuv va tadqiqot mantig'i ochib beriladi. Bunda talabgor tomonidan muammoni qanday ilmiy nuqtayi nazardan hal etishi rejalashtirayotgani ko'rsatib beriladi. Tadqiqotning yakuniy maqsadi aniq va lakonik shaklda ifodalanadi, unga erishish uchun zarur bo'lgan aniq vazifalar mantiqiy ketma-ketlikda (odatda 6–8 ta) ro'yxat shaklida keltiriladi.

3.6. Tadqiqot ob'yekti va predmeti: Tadqiqot ob'yekti (o'rganilayotgan hodisa, jarayon yoki tizim) va predmeti (shu ob'yektning tadqiq etiladigan aniq jihati, xususiyati, munosabati mexanizm, jarayon yoki usul) aniq ajratib ko'rsatiladi.

3.7. Tadqiqot metodologiyasi va usullari: Qo'llaniladigan umumilmiy va maxsus tadqiqot usullari (tahlil-sintez, qiyosiy-huquqiy, statistik, eksperimental, matematik modellashtirish va boshqalar) sanab o'tiladi va ularning tanlanish sababi asoslanadi.

3.8. Kutilayotgan ilmiy yangilik: Tadqiqot natijasida olinishi kutilayotgan yangi ilmiy natijalar, yondashuvlar yoki yechimlar aniq va qisqa shaklda ifodalanadi — bu qism taqdimotning eng muhim qismlaridan biri hisoblanadi.

3.9. Kutilayotgan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati: Tadqiqot natijalarining fan nazariyasiga qo'shadigan hissasi, shuningdek amaliyotda (ishlab chiqarish, ta'lim, boshqaruv, huquqni qo'llash va h.k.) qanday qo'llanilishi mumkinligi ko'rsatiladi. Ilmiy ahamiyat tadqiqot natijalari mavjud

ilmiy bilim, nazariya, metodologiya, usul yoki yondashuvlarni qanday to'ldirishi yoki rivojlantirishi bilan ifodalanadi. Amaliy ahamiyatda esa kutilayotgan natijalardan qaysi soha, jarayon, texnologiya, boshqaruv tizimi yoki boshqa amaliy faoliyatda foydalanish mumkinligi ko'rsatiladi.

3.10. Dissertatsiyaning taxminiy tuzilishi: Tayyorlanishi kutilayotgan dissertatsiyaning kirish, boblar (odatda 4-5 ta bob) va ularning paragraflari, xulosa qismlaridan iborat taxminiy rejasi (mundarijasi) keltiriladi.

3.11. Tadqiqot bosqichlari bo'yicha taqvim-tematik reja: Tadqiqotning butun davri (odatda 3 yil) bo'yicha bosqichma-bosqich ish rejasi jadval shaklida keltiriladi:

Bosqich	Bajariladigan ishlar mazmuni	Muddati
I	Adabiyotlar tahlili, ilmiy apparatning aniqlashtirilishi, tadqiqot metodikasini ishlab chiqish	1-yil
II	Asosiy tadqiqot ishlarini bajarish, dalillarni yig'ish va tahlil qilish, ilmiy maqola va tezislar chop ettirish	2-yil
III	Natijalarni umumlashtirish, dissertatsiyani rasmiylashtirish, muhokamadan o'tkazish va himoyaga tayyorlash	3-yil

3.12. Foydalanilishi rejalashtirilgan asosiy adabiyotlar ro'yxati: Taqdimot oxirida tadqiqot davomida foydalanilishi ko'zda tutilgan asosiy ilmiy manbalar (kamida 15–20 ta), jumladan so'nggi 5–10 yil ichida nashr etilgan yetakchi xorijiy va mahalliy adabiyotlar ro'yxati keltiriladi.

3.13. Talabgorning mavjud ilmiy natijalari: Talabgorning tanlangan mavzu yoki unga yaqin yo'nalish bo'yicha avval nashr etilgan ilmiy maqola va tezislari ro'yxati (chop etilgan joyi, yili ko'rsatilgan holda) taqdimotga ilova qilinadi.

4. TAQDIMOTNI RASMIYLASHTIRISHGA QO'YILADIGAN TALABLAR

4.1. **Til:** Taqdimot davlat tilida tayyorlanadi. Tashkilotning faoliyat yo'nalishi yoki ilmiy ixtisoslik xususiyatidan kelib chiqib taqdimot rus, ingliz yoki boshqa tilda tayyorlanishi mumkin.

4.2. **Yozma hujjat hajmi:** Ilmiy-tadqiqot ishi taqdimotining yozma matni, odatda, 10–15 bet (ijtimoiy-gumanitar yo'nalishlarda 20 betgacha) hajmida tayyorlanadi.

4.3. Sahifa formati va shrift: Rasmiylashtirishda dissertatsiya va ilmiy-tadqiqot ishlarini rasmiylashtirishning umumiy qoidalariga (OAK standartlariga) muvofiq quyidagi parametrlar qo'llaniladi:

- Qog'oz formati — A4, matn qog'ozning bir tomoniga chop etiladi;
- Shrift — Times New Roman, 14 punkt;
- Qatorlar oralig'i — 1,5 interval;
- Sahifa chegaralari (margin) — chapdan 30 mm, o'ngdan 15 mm, yuqori va quyidan 20 mm;
- Sahifalar tartib raqami sahifaning pastki o'ng (yoki markaziy pastki) qismida qo'yiladi, titul varag'i hisoblanadi, lekin raqamlanmaydi.

4.4. Titul varag'i

Titul varag'ida quyidagi ma'lumotlar aks ettiriladi:

- Tegishli vazirlik/muassasa va OTM nomi;
- Hujjat nomi — "PhD/DSc ilmiy darajasini olish uchun bajariladigan ilmiy-tadqiqot ishi taqdimoti";
- Ixtisoslik shifri va nomi;
- Talabgorning F.I.Sh.;
- Taklif etilayotgan ilmiy rahbar F.I.Sh., ilmiy darajasi va unvoni;
- Tuzilgan shahar va yil.

4.5. Mundarija va sarlavhalar: Taqdimotning ikkinchi sahifasida mundarija keltiriladi, unda barcha bo'lim sarlavhalari va ularning boshlanish sahifalari ko'rsatiladi. Bo'lim sarlavhalari bir xil shriftda, qalin (bold) harflarda ajratib yoziladi.

4.6. Elektron va bosma nusxa: Taqdimot, odatda, bir nusxada bosma (qog'oz) ko'rinishida hamda elektron shaklda (PDF yoki boshqa formatida) topshiriladi; universitet elektron shaklini maxsus elektron tizim orqali yuklashni ham talab qilishi mumkin.

4.7. Og'zaki taqdimot (prezentatsiya slaydlari): Qabul komissiyasi oldida og'zaki himoya uchun, qoidaga ko'ra, quyidagilarga rioya qilinadi:

- Taqdimot 10–15 ta slayddan iborat bo'lishi tavsiya etiladi;
- Og'zaki ma'ruza davomiyligi — 5-7 daqiqa, undan keyin komissiya a'zolari savollari uchun vaqt ajratiladi;

- Slaydlarda mavzu, dolzarblik, maqsad-vazifalar, ilmiy yangilik va kutilayotgan natijalar, taqvim rejasi asosiy o‘rin egallashi lozim;
- Slaydlar matni ortiqcha yozuvlardan xoli, grafik va sxemalar bilan boyitilgan bo‘lishi maqsadga muvofiq.
- Slaydlar matni ortiqcha yozuvlardan xoli, grafik va sxemalar bilan boyitilgan bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Umumiy tavsiyalar:

- slaydlar vizual yordamsiz oson tushunilmaydigan ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi kerak;
- slaydlar taqdimot yoki uning qismlarining mazmunini to‘ldirishi yoki umumlashtirishi kerak, uni takrorlamasligi kerak;
- har bir slayd sarlavhaga ega bo‘lishi kerak;
- slaydlar haqidagi ma’lumotlar qisqa, aniq va yaxshi tuzilgan holda taqdim etilishi kerak;
- slaydlar grafika va matn bilan ortiqcha yuklanmasligi kerak; slaydda yetarli bo‘sh joy bo‘lishi kerak.
- slaydlar mazmuni faqat matndan yoki grafikadan iborat bo‘lmasligi kerak;

4.8. Tayanch doktorantura (PhD)ga talabgorlar uchun 1-ilovada, doktorantura (DSc)ga talabgorlar uchun esa 2-ilovada taqdimotni shakllantirish bo‘yicha namuna keltirilgan.

5. TAQDIMOTNI TOPSHIRISH VA HIMOYA QILISH TARTIBI

5.1. Taqdimot belgilangan muddatda qabul komissiyasi kotibiyatiga boshqa hujjatlar bilan birga topshiriladi.

5.2. Taqdimot o‘tkaziladigan sana, vaqt, joy, uning formati, taqdimot va savol javob uchun ajratiladigan vaqt hamda tashkiliy shartlar oliy ta’lim yoki ilmiy tashkilot tomonidan oldindan belgilanib, talabgorlarga ma’lum qilinadi. Barcha talabgorlarga taqdimot qilish va komissiya savollariga javob berish uchun teng tashkiliy sharoit hamda bir xil vaqt ajratiladi.

5.3. Talabgor taqdimotni imtihon komissiyasi (yoki maxsus ekspert guruhi) a’zolari ishtirokida og‘zaki ravishda himoya qiladi. Talabgor taqdimot jarayonida o‘z tadqiqot taklifining asosiy mazmunini mustaqil bayon etadi. Bunda taqdimot matnini to‘liq o‘qib berish bilan cheklanmasdan, ilmiy

muammo, tadqiqot maqsadi va vazifalari, metodologik yondashuv, kutilayotgan natijalar hamda tadqiqotni amalga oshirish rejasini tushuntirib beradi.

5.4. Taqdimot davomida komissiya a'zolari mavzuning dolzarbligi, ilmiy apparatning to'g'riligi, talabgorning sohadagi tayyorgarlik darajasi bo'yicha savollar beradi.

5.5. Komissiya taqdimot va suhbat natijalariga ko'ra talabgorning kirish reytingiga qo'shiladigan ballni belgilaydi yoki mavzu/ilmiy rahbar nomzodini tasdiqlash bo'yicha tavsiya beradi.

5.6. Zarur bo'lgan hollarda komissiya talabgorga mavzuni aniqlashtirish yoki taqdimotni qayta ishlab chiqish bo'yicha tavsiyalar berishi mumkin.

5.7. Taqdimot va komissiya bilan savol-javob jarayoni videokuzatuv ostida (onlayn translyatsiya) o'tkazilishi tavsiya etiladi.

5.8. Komissiyaning har bir a'zosi talabgorning taqdimoti va savol-javob natijalarini mustaqil baholaydi. Savollar talabgorlarning tadqiqot mavzulari xususiyatidan kelib chiqib farq qilishi mumkin, biroq ularning mazmuniy yo'nalishi va murakkablik darajasi barcha talabgorlar uchun bir xil darajada bo'lishi tavsiya etiladi.

6. ILMIY-TADQIQOT ISHI TAQDIMOTINI BAHOLASH MEZONLARI

Talabgorning ilmiy tadqiqot ishi taqdimoti 100 ballik tizimda baholanadi. Baholash mezonlari taqdimotning tegishli tarkibiy bo'limlari hamda og'zaki taqdimot va savol-javob natijalarini qamrab oladi. Har bir mezon bo'yicha baholanadigan ko'rsatkichlar, ball berish shartlari va eng yuqori ball oldindan belgilanadi.

Komissiya a'zolari tomonidan qo'yilgan umumiy ballar asosida talabgorning taqdimot bo'yicha yakuniy natijasi ularning o'rtacha arifmetik qiymati sifatida hisoblanadi.

Tayanch doktorantura (PhD)ga talabgorlar uchun baholash mezonlari, ko'rsatkichlari, ball berish shartlari va ularning taqsimoti 6.1-jadvalda, doktorantura (DSc)ga talabgorlar uchun esa 6.2-ilovasida keltirilgan.

6.1-jadval.

**Tayanch doktorantura (PhD)ga talabgorning ilmiy tadqiqot ishi
taqdimotini baholash jadvali**

No	Baholash mezonlari	Maksimal ball
1.	Tadqiqot mavzusining dolzarbligi va o'rganilganlik darajasi.	15
2.	Tadqiqot maqsadi va vazifalari	12
3.	Tadqiqot obyekti, predmeti va qamrovi	8
4.	Tadqiqot metodologiyasi va usullari	18
5.	Tadqiqot g'oyasi va kutilayotgan ilmiy ahamiyati	15
6.	Tadqiqotni amalga oshirish bosqichlari va ish rejasi	10
7.	Tadqiqotchining hozirgacha erishgan ilmiy va amaliy natijalari	12
8.	Og'zaki taqdimot va savol-javob	10
JAMI		100

6.2-jadval.

**Doktorantura (DSc)ga talabgorning ilmiy tadqiqot ishi taqdimotini
baholash jadvali**

No	Baholash mezonlari	Maksimal ball
1.	Avvalgi ilmiy natijalar va ularning rejalashtirilayotgan tadqiqot bilan bog'liqligi	10
2.	Ilmiy muammoning zamonaviy holati va hal etilmagan jihatlari	15
3.	Tadqiqot kontseptsiyasi, maqsadi va asosiy vazifalari	12
4.	Tadqiqot obyekti, predmeti va qamrovi	6
5.	Tadqiqot metodologiyasi va usullari	16
6.	Kutilayotgan ilmiy yangilik	16
7.	Kutilayotgan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati	8
8.	Tadqiqotni amalga oshirish strategiyasi, bosqichlari va yakuniy asoslash	7
9.	Og'zaki taqdimot va savol-javob	10
JAMI		100

Yakuniy baholash shkalasi

Ball	Baho	Tavsif
86–100	A'lo	Tadqiqot konsepsiyasi puxta, ilmiy yangilik va metodologiya yuqori darajada.
71–85	Yaxshi	Tadqiqot asoslari yetarlicha shakllangan, ayrim kamchiliklar mavjud.
56–70	Qoniqarli	Asosiy talablar bajarilgan, ammo takomillashtirish talab etiladi.
0–55	Qoniqarsiz	Tadqiqotning ilmiy asoslari yetarli darajada shakllanmagan.

7. YAKUNLOVCHI QOIDALAR

Mazkur hujjatda nazarda tutilgan talablar ilmiy kadrlar tayyorlashning ustuvor yo'nalishlariga oid ixtisosliklar bo'yicha tayanch doktorantura (PhD) va doktorantura (DSc)ga qabul qilishda ilmiy tadqiqot ishi taqdimotini tayyorlash, taqdim etish va baholash jarayonida qo'llanish uchun tavsiya etiladi.

Oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlar tomonidan qabul jarayoni boshlanishidan oldin talabgorlarga taqdimotning mazmuniga qo'yiladigan talablar, uni o'tkazish tartibi hamda baholash mezonlari bilan tanishish imkoniyatini yaratiladi.

Mazkur talablarda tayanch doktorantura (PhD) va doktorantura (DSc) uchun baholash mezonlari, ko'rsatkichlari va ball berish shartlari, shuningdek taqdimotning tarkibiy bo'limlarini shakllantirish bo'yicha namunalar keltirilgan.

Taqdimotni baholash natijalari yuzasidan apellyatsiya shikoyatlari, shuningdek mazkur Talablarda tartibga solinmagan qabul jarayoni bilan bog'liq masalalar oliy ta'limdan keyingi ta'lim sohasidagi va tegishli qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi.